

**TALABALARDA ILMIY DUNYOQRASHNI SHAKLLANTIRISH
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA****Esanboyev Qahramon O`ktamovich**

SAMISI o`qituvchsi

SAMDU doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalar ilmiy dunyoqarashining shakllanishi ijtimoiy-psixologik muammo sifatida tahlil qilinadi. Ilmiy dunyoqarash shaxsning atrof-muhit va jamiyatni obyektiv idrok etishiga, ilm-fan yutuqlariga asoslangan tafakkur tizimini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda ilmiy dunyoqarash shakllanishining psixologik va ijtimoiy omillari, unga ta'sir etuvchi pedagogik sharoitlar hamda zamonaviy ta'lim jarayonidagi ahamiyati o'rganiladi. Shuningdek, ilmiy tafakkurni rivojlantirishda muhim omil bo'lgan ijodiy va tanqidiy fikrlash jarayonlari, ularning talabalarning shaxsiy va professional rivojlanishiga ta'siri yoritiladi.

Kalit so'zlar: Ilmiy dunyoqarash, ijtimoiy-psixologik muammo, talaba, tafakkur, ta'lim, tanqidiy fikrlash.

Abstract: This article examines the formation of students' scientific worldview as a socio-psychological issue. A scientific worldview contributes to an individual's objective perception of the environment and society, fostering a thinking system based on scientific achievements. The study explores the psychological and social factors influencing the development of a scientific worldview, the pedagogical conditions that shape it, and its significance in the modern educational process. Furthermore, it highlights the role of creative and critical thinking in developing scientific reasoning and their impact on students' personal and professional growth.

Key words: Scientific worldview, socio-psychological issue, student, thinking, education, critical thinking.

Аннотация: В данной статье рассматривается формирование научного мировоззрения у студентов как социально-психологическая проблема. Научное мировоззрение способствует объективному восприятию человеком окружающей среды и общества, формированию системы мышления, основанной на достижениях науки. В исследовании анализируются психологические и социальные факторы, влияющие на развитие научного мировоззрения, педагогические условия его формирования, а также его значение в современном образовательном процессе. Кроме того, подчеркивается роль творческого и критического мышления в развитии научного познания и их влияние на личностное и профессиональное становление студентов.

Ключевые слова: Научное мировоззрение, социально-психологическая проблема, студент, мышление, образование, критическое мышление.

Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish asosi o‘zini o‘zi anglash va shaxs ongining o‘rishiga imkon beradi. Bunday tadqiqotlarga asoslanib, A.N.Leontev fundamental g‘oyalarini shakllantiradi. A.N.Leontev fikri bo‘yicha, subyektning xilma-xil faoliyati bir-biri bilan o‘zaro kesishadi va uni majburiy ravishda ijtimoiy tabiatga ega bo‘lgan obyektiv munosabatlarga chambarchas bog‘lanadi. Bunday tizimli jarayonlar shaxsning sirli markazini tashkil qiladi, biz uni “Men” deb ataymiz [1].

Mazkur yondashuvga muvofiq, ilmiy dunyoqarash “Men”ning egosentrik nazariyalari bilan emas, balki, shaxsning “Men”ni jamiyatdagi umumiy o‘zaro shaxslararo bog‘liqligi tizimiga kiritish orqali ta‘minlanadi.

Taniqli gruzin psixologi D.N.Uznadze va uning shogirdlari A.S.Prangishvili, Sh.A.Nadirashvili va boshqalar tomonidan olib borilgan ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarda barqarorlik shaxsning shaxslararo munosabatlarida qotib qolgan munosabatlari bilan bog‘liq deb tushuntiriladi. Bunday jarayonlar shaxs xulq-atvorining nisbatan barqarorligini oldindan belgilab beradi, chunki, bu munosabatlar kelajakdagi faoliyat mazmunini ta‘minlaydi [2].

Shuningdek, tadqiqotda talabalar ilmiy dunyoqarashini shakllantirish ulardagi himoya mexanizmlari va koping-strategiyalarining differensial ifodalanishi kognitiv, emotiv, xulqiy, intellektual qobiliyatlarni ustuvor namoyon bo‘lishiga olib kelganligi sababli pedagogik-psixologik barqarorlikni shakllantirishning muhim omili ekanligi asoslangan bo‘lib, munosabatlar nazariyasiga muvofiq faoliyatni barqarorlashtirishning asosiy omillaridan biri psixologik himoya mexanizmini ta‘minlovchi ko‘p qirrali munosabatlar mavjudligi to‘g‘risida ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Taniqli olim A.G.Asmolovning ilmiy ishlarida shaxs faoliyatining uch darajasini (faoliyat, harakat, operatsiya) ajratib, ularni har birini alohida-alohida tavsiflaydi. Shaxslararo munosabatlarda faoliyat motivi bilan dolzarblashadi va ma‘lum bir yo‘naltirilgan faoliyatni amalga oshirishda psixologik tayyorgarlikni ifodalash shaklidir. Bu faoliyatning umumiy yo‘nalishlarini mustahkamlaydi va shu bilan bir qatorda xatti-harakatlarning barqarorligi ta‘minlaydi [3].

Shaxs faoliyatini amalga oshirishdan maqsad va uni tadqiq etishda bizga maqsad qo‘yish fenomenini alohida ajratib ko‘rsatishga imkon beradi. Maqsad - ongli, oldindan ko‘rish mumkin bo‘lgan natijaning tasviri sifatida, muayyan harakatga tayyorgarlikni amalga oshirish jarayonidir. Maqsadga erishish yo‘lida, yangi to‘siqlar paydo bo‘lganda (vaziyatning noaniqligi, keskin o‘zgarishi, harakat jarayonining buzilishi) maqsadni belgilash fenomenologik jihatdan o‘zini namoyon qila boshlaydi, oldindan belgilangan yo‘nalishda mo‘ljallangan harakatni amalga oshirishni ta‘minlaydi.

Faoliyatda operativ tayyorlanish - bu shaxsning o‘xshash turli xil vaziyatlarda tajribasiga asoslangan muayyan faoliyat yo‘nalishlarini amalga oshirishga tayyorgarlik bosqichidir. Tezkor ravishda stereotipik fikrlash, shaxsning identifikatsiyasini ta‘minlaydi.

Mashhur olim V.A.Yadov shaxsning dispozitsion konsepsiyasi negizida shaxslararo munosabatning biroz boshqacha, ya‘ni ierarxik tuzilishini taklif etadi. Bu ierarxiyaning past darajasi, uning fikricha, “elementar munosabatlar”, ikkinchi darajada “ijtimoiy

munosabatlar tizimi”, uchinchisida – “asosiy ijtimoiy munosabatlar”, eng yuqori darajada – “qiymat tizimi” yo’nalishlarini belgilaydi [4].

Yuqoridagi tadqiqotlardan olingan empirik natijalarga asoslangan holda, ustanovka tuzilishiga doir ko’rib chiqilgan farqlar bir-birini istisno qilmaydi, balki uzviy ravishda bir-birini to’ldiradi.

Ijtimoiy-psixologik nazariyalarda ilmiy dunyoqarash muammosi uch jihatdan o’rganilgan. Birinchidan, shaxslarning tashqi ko’rinishi, nutqi, o’zini tutishi, yuz ifodalari, imo-ishoralari va individual xususiyatlari inobatga olinadi. Har bir shaxsning qiyofasini aniqlash va ijtimoiy jihatdan o’zaro ta’sirning belgilangan vaziyatlarida juda samarali foydalanish imkonini beradi.

Ikkinchidan, shaxsning idroki uning doimiyliги atrof-dagilar bilan shaxslararo munosabatlarda namoyon bo’lish dinamikasini farqlash imkoniyatiga ega. Bu esa ma’lum bir aloqaning psixologik barqarorligi to’g’risidagi ma’lumotlarni o’z ichiga qamrab oladi.

Uchinchidan, hayotdagi turli xil vaziyatlarda xatti-harakatlarning doimiyliги shaxslararo muloqotning qulayliги muhim jarayon sifatida qaraladi.

Taniqli psixolog K.Levinning fikricha, shaxsning strukturaviy-dinamik nazariyasi nuqtai nazaridan qaralganda, ehtiyojni shaxs faoliyatini harakatlantiruvchi kuchi deb hisoblaydi. Uning shaxsga nisbatan bergan ta’rifiga ko’ra, “ehtiyotlar shaxs xatti-harakatining motoridir” deb ta’riflaydi. Har qanday harakatni yuzaga keltiradigan alohida dinamik holat sifatida ehtiyojlarni hisobga olgan holda, K.Levin talqinida shaxsning har qanday ehtiyojlarini motivlashtiruvchi (ishontiruvchi) ta’sirga qarshi turishi aloqadorlik darajasiga va oldindan shakllangan hayotiy bilimlar va unga amal qilinishga bog’liq ekanligini ta’kidlaydi. Bunday jarayonlar esa shaxsning ilmiy dunyoqarash darajasini belgilaydi. Shaxs o’zining ma’naviy e’tiqodini ilgari qabul qilingan qarorni saqlashga ijobiy ta’sir har qanday mas’uliyatli harakatning maqsadlarini aniq belgilab olish va belgilangan maqsadlarga erishish yo’lida qilinayotgan sa’y-harakatlarni namoyish etish orqali amalga oshiriladi.

Mashhur olim F.Xope “Har bir shaxsning o’zi intilayotgan ideal maqsadi va harakat yoki tajribaga mos keladigan aniq bir maqsadi bo’ladi” deb ta’kidlagan. F.Xoppe eksperimental laboratoriya yordamida shaxslarning har bir faoliyatining haqiqiy ma’nosini, shuningdek, ideal maqsadga erishish usullarini aniqlaydi.

F.Xope tadqiqotlarida shaxs o’z-o’zini anglagan holda “Men” darajasini imkon qadar yuqori darajada ushlab turish bosqichlarini o’rganadi. Geshtalt psixologiyada aynan “ichki ideal maqsad” va “Men” darajalari orqali ilmiy dunyoqarash mazmuni o’rganilgan [5].

Amerikalik psixolog E.Eriksonning ontogenetik nazariyasi doirasida zamonaviy “Ego psixologiyasi” nuqtai nazaridan ilmiy dunyoqarash g’oyasi ochib berilgan. Egoning vazifasi E.Erikson fikriga ko’ra, hayotning turli (qarama-qarshi) tomonlari va bosqichlari o’rtasida to’g’ridan-to’g’ri taassurotlar va xotiralar o’rtasida yaxlit sintezni yaratish uchun tajribani o’zlashtirish, harakatlarni boshqarishga yordam berishini asoslangan. Buni amalga oshirish uchun ego sintez usullarini, himoya mexanizmlarini ham ishlab chiqadi [6].

Biz tadqiqotimiz davomida V.F.Perevalov va uning shogirdlari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarini o’rganish jarayonida “xavfsiz tip” deb ataladigan shaxsning

xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha ham bir qator ilmiy-nazariy tahlillarni amalga oshirdik. Shaxs atrofidagi dunyoni ham xavfli, ham xavfsiz tarzda anglashi mumkinligiga ishonadi bunday kutilmagan vaziyatlarga rozi bo‘lmaydi. Xavfsiz tipdagi shaxs jamiyatdagi o‘rnini shaxsiy va ijtimoiy obro‘sinini saqlash, shuningdek, ma‘naviy hamda jismoniy salomatligini saqlash, mustahkamlash, tabiiy o‘zligini saqlash, uchun samarali, maqsadli faoliyatni amalga oshirishga qodir hisoblanadi. Shaxslarning bunday holatlari yangi turdagi avlodiga bo‘lgan ehtiyojlarni va munosabatlarni ifodalaydi

FOYDANAILGAN ADABIYOTLAR:

1. Назаров Қ. Педагогик психология. – Тошкент: Университет, 2020.
2. Bygotsky L.S. Thought and Language. – Cambridge, MA: MIT Press, 1986.
3. Поппер К. Открытое общество и его враги. – Москва: АСТ, 2003.
4. Филонов Г.Н. Научное мировоззрение: философские и психологические аспекты. – Санкт-Петербург: Питер, 2017.